

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KREATIV-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA
KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI**

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ КРЕАТИВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ
ПОДХОДЫ**

**METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN
FUTURE TEACHERS THROUGH CREATIVE-PEDAGOGICAL APPROACHES**

Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich 

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqlada bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlanirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlanirishning texnologik tizimi, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlanirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ-pedagogik yondashuv imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития профессиональной компетентности у будущих учителей через креативно-педагогические подходы. Описывается технологическая система повышения профессиональной компетентности на основе креативно-педагогических методов и исследуется эффективность этих подходов в подготовке будущих педагогов. Также анализируются возможности, предоставляемые креативно-педагогическими подходами в подготовке будущих учителей.

Abstract

The article discusses the theoretical and methodological foundations for developing professional competence in future teachers through creative-pedagogical approaches. It outlines the technological system for enhancing professional competence based on creative-pedagogical methods and examines the effectiveness of these approaches in the training of future educators. Additionally, it analyzes the opportunities provided by creative-pedagogical approaches in the preparation of future teachers.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, kreativ-pedagogik, kompetentlilik, ta'lim-tarbiya, reproduktiv, retrospektiv, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kreativ-pedagogik yondashuv, texnologik tizim, nazariy-metodologik asos.

Ключевые слова: будущий учитель, креативно-педагогический, компетентность, образование, репродуктивный, ретроспективный, компетенция, профессиональная компетентность, креативно-педагогический подход, технологическая система, теоретико-методологическая основа.

Key words: future teacher, creative-pedagogical, competence, education, reproductive, retrospective, competency, professional competence, creative-pedagogical approach, technological system, theoretical-methodological basis.

KIRISH

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida pedagoglarni tayyorlash jarayonlarida milliy va umuminsoniy, motivatsion-qadriyatli vafaoliyatga aksilogik munosabatlarni tarkib toptirish masalasiga jamiyatda qadriyatlar tizimini rivojlanirishning birlamchi vositasi sifatida qaralib, o'quv mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda va bu borada bir qancha ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlanirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, aksilogik yondashuvning eng samarali usullarini interpretatsiyasidan keng foydalanishga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kasbiy faoliyatga tayyorlash, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari Wilson, J.Kim, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, N.Shodiyev, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, V.Slastenin, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, Y.Shiyanov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insonlar kreativ bo'lib dunyoga kelmaydi, balki ularning barchasi harxil darajadagi har birimizga xos bo'lgan potensialni amalga oshirish uchun tashqi muhit imkoniyatlarni taqdim etishiga bog'liq. Kreativlik odatda noan'anaviy yondashuvlarni o'z ichiga olgan oddiy narsaning aksi sifatida qaraladi. S.Spearman bu "yangi aloqalarni o'zgartirish va yaratish orqali yangi mazmun yaratadigan inson ongingin kuchi", deb ishongan. V.Simpson kreativlikni "fikrlash jarayonida tushunchalarning umumiyligini qabul qilingan, odatiy tartibini buzish qobiliyati" deb ta'riflagan.

Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertatsiyasida kreativlikning ko'plab ta'riflarini tahlil kilib, ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U "ijodiy fikrlashni tushuncha, tasavvur, bilim, ko'nikma, fikr, motivatsiya va e'tikodga asoslangan holda yaratish lozimligini ta'kidlaydi". Uning ijodiy fikrlash negiziga tasavvurni belgilashi ham bejiz emas, negaki fikr, g'oya, amalga oshirilayotgan bir ish-harakat, voqelik, avvalo, shaxs tasavvurida paydo bo'lib, tushunchalarni anglash, bilim, ko'nikmalarni egallah va vaziyatga nisbatan motivatsiyaning uyg'onishi natijasida, Z.T.Nishanova tahliliga ko'ra, insonda ijodiy fikrlash jarayoni yuzaga keladi.

Fikrimizcha, kreativlik tushunchasi intellekt bilan aloqador jarayondir, "kreativlik aqlning eng yuqori shaklidir", negaki u o'rganilgan bilimlarni tahlil etish, foydalanishdan tashqari, yangi fikr va g'oyalarni, innovatsion bilimlarni yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Biz tomonimizdan o'rganilgan abadiyotlar, tahlil etilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi kreativ shaxslar namunali intellektga ega bo'lishi mumkin, ammo yuqori intellekt egalari har doim ham kreativ bo'lolmaydi.

Shaxs kreativlik darajasiga ko'tarilish uchun boshqalardan farqliholatda qo'shimcha mustaqil izlanishi, tasavvur va qobiyatlarini rivojlantirishga intilishi, tarixiy va zamonaviy adabiyotlarni ijodiy, ilmiy jihatdan erkin tahlil etishi, dunyo o'zgarishlaridan xabardor bo'lishi, buning uchun ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanishi, o'quv jarayonida erkin fikrlar yuritishi, yangi bilimlarni qiziqish hamda ishtiyoq bilan o'zlashtirishi, o'z-o'zini nazorat qilib borishi lozim.

Mualliflik tarifimizga ko'ra, kreativ yondashuv deganda uning noodatiy fikrlashi, kutilmagan vaziyatga nisbatan ijobjiy javob qaytara bilishi, har qanday savolga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng mukammal natijani ko'rsatishi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir.

Talabalik davrida kreativlikni rivojlantirishning o'ziga xosxususiyatlaridan biri – bu davrda ixtisoslashtirilgan kreativlikni shakllanishidir. Aniqroq qilib aytganda, bu davrda kasbiy faoliyatga intellekt motivatsiyasi ulardagi bilim faoliyagini rivojlanishi, o'z hayat tarzini aniqlash individuallashuv jarayoni bilan uyg'un holatda kechadi.

Ma'lumki, har qanday shaxs o'z kasbiy bilimlarining o'sishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun shaxs o'zining kreativligi bilan o'z kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, takomillashtirishi lozim. Bunday tajribalarni talabalar olyi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olish natijasida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. Shunday ekan, talabalar ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilim asoslarini o'zlashtirishi, balki sohaga yo'naltirilgan kasbiy kompetensiyalarni egallah, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishimizning mazmunini batafsil yoritib berish uchun kompetensiya tushunchasining mohiyatini ochib berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligidagi ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarorqali, balki shaxsning ta'lim jarayonida egallagan

kompetensiyalari orqali aniqlanishi ta'kidlanadi. Kompetensiya – bu oliy kasbiy ta'lif mazmuni uchun ayniqsa muhim bo'lgan, o'quv jarayonining rejalahshtirilgan maqsadi, u mutaxassis uchun kasbiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

"Kompetensiya" lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi". Kompetensiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

N.M.Muslimovning ta'kidlashicha, inglizcha "somretense" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq "kompetensiyaatamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi".

"Kompetensiya" atamasi tilshunoslikda ilk bor XX asrning 50-60 yillarda qo'llangan va insonning biror faoliyatini amalga oshirish layoqatini anglatgan. A.Xutorskoy va A.Zimnyaya tomonidan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab etiladigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlik esa mana shu talabga moslik darajasi, kompe-tensiyanı namoyon qilishning natijasi deb talqin etilgan.

V.Serikov "kompetensiyanı shaxsiy o'zini o'zi anglashga hissaqo'shadigan bilim, ko'nikma, ta'limning mayjudligi" sifatida belgilaydi va "kompetentlikni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat" deb izohlaydi.

V.I.Baydenko fikricha, kompetensiya deganda "harakatlarning maqsadi va yashash sharoitini e'tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo'lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlilik yoki tayyorlik" tushunilishini ta'kidlaydi.

E.F.Zeyerning ta'rifiga ko'ra, kompetensiya deganda, "faoliyatning adekvat meyoriga aylanadigan, bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat qobiliyatları va qadriyatli motivatsion komponentlarini o'z ichiga olgan interaktiv konstruksiylar" tushuniladi.

S.Y.Shishov va I.G.Agapov fikricha, kompetensiashaxsning o'quv jarayonida olingen bilim va tajribaga asoslangan qobiliyatlarini, shuningdek, uning harakatga tayyorligini anglatadi.

Kompetensiyalar shaxsning mustaqilligiga, o'quv va amaliy faoliyatda ko'zlangan muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan bo'ladi.

V.D.Shadrikovning so'zlariga ko'ra, kompetensiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarining tizimli namoyon bo'lishini nazarda tutadigan faoliyat subyektining yangi bir turi hisoblanadi.

B.X.Xodjayev "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lif, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o'rta ta'lif bilan bog'lagan holda ta'rif beradi. U kompetensiyanı "ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limi tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o'zib ketishidir", deb ta'kidlaydi.

XULOSA

Bugungi kunda ta'lif jarayonida faol foydalanilib, ijobiy natija berayotgan kompetensiya tushushchasini imkon qadar tahlil qilib va umumlashtirgan holda ushbu tushunchani oly ta'lif talabasi shaxsiga qarata quyidagicha izohlash mumkin: "Kompetensiya" – bu talabaning ma'lum yo'nalishda bilimlarni o'rganish va egallagan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida samarali, muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo'llay bilishga yo'naltirilgan tayyorgarligidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Maslow A.X. The father reaches of human nature NY: Viking. – 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books. – 1973. – P. 126-128.
- Torrance, E. P. (1981), Thinking creatively in action and movement, Bensenville (II.), Scholastic testing service.-P. 56.
- Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад. В.П.Зинченко. 2003. – 92 с.
- Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.:Питер, 2009. - 448с
- Новейший словарь иностранных словиц выражений. -Мн.: Харвест. –М.: ООО “Издательство АСТ”, 2001. – С.202.